

BIR XONALI SONLARNI O'NLIKDAN O'TIB QO'SHISHDA QO'SHISH VA ALMASHTIRISHNI 5E MODEL I ORQALI TUSHUNTIRISH

*Tuzuvchi: Jizzax viloyati G`allaorol tumani
19-umumiy o`rta ta`lim maktabi I toifali
Boshlang`ich sinf o`qituvchisi
Pardaboyeva Matluba Ergashevna*

Annotatsiya: Bir xonali sonlarni o'nlikdan o'tib qo'shishda qo'shish va almashtirishni 5E modeli orqali tushuntirishga bag'ishlangan ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan bo'lib, 1-sinf matematika darslarini olib borishda qo'l keladi. Mavzu kundalik hayotda tez-tez uchraydigan hisoblashlarga tayangan holda ochib beriladi, masalan, do'kondan ikkita buyum olishda yoki qalamlarni sanashda bolalar aynan shu qo'shishni ishlatadi. Darsda sonlarni almashtirib qo'shish orqali misollarni yengilroq tushuntirish mumkin, shu paytda bolalar qo'rqmaydi, hisobni sekin-sekin ang'lay boshlaydi. Menimcha, bu usul 1-sinf o'quvchilariga qulayroq, chunki ular sonlarni yodlab emas, ko'z oldiga keltirib hisoblashga o'rganadi. Maktablar uchun mo'ljallangan ushbu maqola matematika fanida qo'shish mavzusini kengroq tushuntirishga yordam beradi, darsda esa o'qituvchi uchun ham ish yengillashadi. Amaliyotda sinab ko'rilsa, ba'zi bolalar avval chalkashgan joylarini o'zlari sezib, to'g'rilab ketgani ham ko'rinadi. Shu mavzu orqali bolalarda oddiy hisoblashga ishonch paydo bo'ladi, bu esa keyingi sonlar bilan ishlashda ham foydasini beradi.

Kalit so'zlar: bir xonali sonlar, o'nlikdan o'tib qo'shish, qo'shish va almashtirish, 5E modeli, 1-sinf matematika, hisoblash ko'nikmalari, kundalik misollar

Matematika ilk bosqichda yaxshi tushuntirilmasa, keyinchalik o'quvchiga oson bo'lmaydi. Ayniqsa, qo'shishda o'nlikdan o'tish degani nimani ang'latishini bolaga tushuntirish biroz e'tibor talab qiladi. Ba'zida oddiy 8 bilan 5 ni qo'shishni ko'rsatamiz, lekin u o'zicha o'nni ajratib olishni bilmaydi. Bu mavzu shunaqa — boshlab bergan bilan emas, yaxshi tushuntirilgan bilan yodda qoladi. Shuning uchun ham bu tavsiya real dars holatlaridan kelib chiqqan holda yozilgan. Har doim qaysi darsda qanday qilib o'nlikdan o'tishini tushuntirish muammo bo'lib kelgan. Bunda faqat qog'ozdagi misol emas, bolaga o'z qo'li bilan his qilib ko'rish kerak bo'ladi. Yigirma yildan beri dars berib kelayotgan o'qituvchilar ham bu joyda to'xtab, yana boshqatdan tushuntirganini ko'rganman. Rostini aytsam, o'zim ham bu mavzuni ancha vaqt ancha oddiyroq deb o'ylaganman. Lekin keyinchalik sinovlardan o'tgandan keyin, qo'llanilgan usullar hamisha ishlayvermasligini ko'rdim. Bu yerda gap faqat

misolni to‘g‘ri qo‘shib chiqarish emas, balki nima uchun o‘nlikdan o‘tyapti degan fikrni o‘quvchiga yetkazishdir. Fanning o‘zi esa qiziq. Har bir son, har bir amal bolaga kichik sirdek tuyuladi. Ayrim hollarda ular hisoblashga boshqacha yondashadi, shunda o‘qituvchi ham biroz yumshoqroq yo‘l tanlaydi. O‘zbek maktablarida ko‘p yillardan beri matematika darslari o‘ziga xos usullar bilan o‘tilib kelmoqda. Har bir hududda o‘qituvchi bu mavzuga alohida yondashadi. Lekin muammo bir xil — o‘nlikdan o‘tishda chalkashib ketishadi.

Bu yerda aytish kerakki, o‘quvchining e‘tiborini jamlash va misolni osonroq qilish uchun almashtirish usuli ancha foyda beradi. Yillar davomida ko‘rilgan darslarda aynan shu yondashuv orqali natijalar ijobiy tomonga o‘zgargan. Almashtirish degan tushuncha bolaga biroz noaniq tuyuladi, lekin uni jonli misollar bilan tushuntirangiz, darrov tushunadi. O‘qituvchi sifatida menimcha, bu usul qulayroq. Yana bir gap, uni bir marta ko‘rsatib berish kamlik qiladi. Har safar biroz boshqacha misollar bilan yana va yana qaytarish kerak. Bu mavzuning asosiy tarafi shuki, u faqat raqamlarni emas, fikrlashni ham o‘rgatadi. Avval o‘ylab, keyin hisoblashga undaydi. Ba‘zida qarasangiz, bolalar o‘zlari to‘g‘ri javob topadi, lekin nima sababdan shunday chiqdi — o‘zi tushuntira olmaydi. Shunda o‘qituvchi savol bilan ish ko‘radi, bu ham qiziq. Darsda qo‘llanilishi uchun tavsiya qilingan 5E modeli bu yerda ayni muddao bo‘ladi. Chunki bu usulda o‘quvchi o‘zi topadi, o‘zi tekshiradi, o‘zi anglaydi. O‘sha vaqtda o‘qituvchining vazifasi yo‘l ko‘rsatish emas, yo‘lni ochib berish bo‘ladi. Bu model oddiy ko‘rinsa-da, aynan shunday mavzularda juda foyda beradi. Har bosqichda o‘quvchining holatini ko‘rib, qanday davom etish kerakligini aniqlab olish mumkin. Bu metodik tavsiya maktablarda dars o‘tishda foydalanish uchun tuzilgan bo‘lib, unda o‘quvchining o‘rganish jarayoni amaliy misollar bilan bog‘lab tushuntiriladi. Tavsiyaning eng foydali tomoni shundaki, u nafaqat misollar, balki qanday qilib bolani bu mavzuga qiziqtirishni ham ko‘rsatadi. Nazariy tushuncha bilan cheklanmasdan, real dars holatlari misolida yozilgan. Qanday o‘tilsa, bolaga yengilroq tushadi — mana shu fikr boshida turgan. Amaliyotda bu usul boshqacha natija berishi ham mumkin, lekin har holda sinab ko‘rishga arziydi.

Matematika degani — faqat quruq sonlar yoki qiyin misollar emas, balki kundalik hayotda ishlatadigan eng oddiy hisoblashlar, o‘lchashlar, solishtirishlar hamdir. Ertalab bozordan biror narsa sotib olish, pul ustini aniqlash, vaqtga qarab ish tutish — bularning barida shu fan kerak bo‘ladi. Ayniqsa kichkina yoshdagi o‘quvchilarga bu fanning o‘ziga xos yengil usulda tushuntirilishi juda zarur. Chunki asos shu yerda qo‘yiladi. Keyingi bilimlar ham shundan boshlab quriladi. Agar hozir yo‘l qo‘yilsa, keyin tuzatish ancha qiyin bo‘ladi. O‘qituvchi sifatida men darslarda aynan boshlang‘ich bosqichda eng ko‘p harakat qilishimni tan olaman. Bolaga matematika yoqib qolgani bilan keyin ham o‘z yo‘lini topadi. Hayotning o‘zi esa bu

fanga doim ehtiyoj sezdiradi. Chunki kundalik ehtiyojlar hammasi hisob bilan bog‘liq. Yaxshi o‘rgatilgan bir dars ham bolada ishonch uyg‘otadi. U qiyinchilikdan cho‘chimaydi. Aksincha, o‘zi yechim izlaydi. Bu esa biz kutgan eng yaxshi natija. O‘nlikdan o‘tib qo‘shish — ko‘pchilik o‘quvchi uchun murakkab tuyuladi. Bu holat ayniqsa darsda birinchi marta duch kelganda seziladi. Avvaliga tushunmaydi, keyin asta-sekin yechishni o‘rganadi. Shunaqa holatlar darsda har yili uchraydi. Menimcha, bu yerda asosiy muammo — almashtirish tushunchasi begona bo‘lishi. Bunga e‘tibor qaratmasak, bolalarda chalkashlik ortib boradi. O‘nlik soni qanday bo‘linadi, qolgan qismi nima uchun ajratiladi — mana shu fikrlar izoh bilan tushuntirilishi kerak. Har bir o‘quvchi buni o‘zicha tasavvur qiladi. Kimdadir bir marta tushadi, boshqasi uchun esa bir necha marta ko‘rsatish kerak bo‘ladi. Mavzu boshlang‘ich matematikani mustahkamlovchi asosiy bo‘laklardan biri. Aynan shu mavzu orqali keyinchalik katta sonlarni qo‘shishda qiynalmaydi. Bolaning miyasida sonlarning qanday tuzilgani haqida shakl hosil bo‘ladi. Bu esa darsning davomida foyda beradi. Darsda noto‘g‘ri tushunilgan misollar ko‘p to‘planadi, agar shu yerda puxta asos qo‘yilsa, hammasi joyiga tushadi. Darsda eng avvalo sonlar orasidagi bog‘liqlikni tushuntirish lozim. Qanday qilib kichik son katta songa qo‘shiladi, qanday hollarda o‘nlikdan o‘tiladi — mana shu savollarga bolalar bilan birga javob topamiz. Misollar orqali ko‘rsatish kerak: 9 ga 4 ni qo‘shsak, avval 1 ni olamiz, keyin 3 qoladi. Bu oddiy tuyuladi, lekin boshlang‘ich bosqichda bolalar uchun yangilik. Biz o‘rgatadigan narsa faqat misol emas, balki fikrlash yo‘li. Sonlarni bo‘lishni, almashtirishni, avval o‘nlikkacha yetkazishni tushunish — hammasi o‘rgatiladi. Shuningdek, o‘quvchi qaysi sonni birinchi qo‘shishi yoki qanday o‘rin almashtirishni tushunib olishi kerak. Ayrimlar o‘zi bilganicha yechishga harakat qiladi, lekin bunday qilishda xato chiqishi mumkin. Shuni ham darsda gaplashamiz. Har doim aniq va tushunarli izoh bo‘lsa, bola tezroq tushunadi. Asosiy narsa — shoshilmaslik. Har bir bosqichni o‘rganib borish kerak. Shunda bilim chuqurroq bo‘ladi.

Qanday o‘rgatish kerak?

Bu mavzuni darsda silliq tushuntirib bo‘lmaydi. Ba’zida bolalar sonlarni almashtirishni ruxsat etmaydi. Men darsda bir necha usullarni sinab ko‘rganman. Ayrim o‘quvchilar uchun raqamlar bilan ishlash qulay, boshqalar esa quloq bilan eshitib yaxshiroq tushunadi. Demak, har xil usullarni aralashtirib qo‘llash kerak. Dastlab misollar doskaga yoziladi. So‘ngra bolalarga birgalikda hisoblatiladi. Shu vaqtda men ularga savol beraman: “O‘nlikdan o‘tdikmi?”, “Qolgan nechchi bo‘ldi?” Kingadir bu savollar tushunarli bo‘lmaydi, lekin tez orada ular o‘zlari o‘ylab topa boshlaydi. Yana bir yo‘li — o‘yin tarzida ko‘rsatish. Masalan, 10 dona tayoqcha berib, qo‘shish orqali almashtirishni tushuntirish mumkin. Bu yerda o‘qituvchining ovozi, sabri, holatga qarab yondashuvi muhim. Har bir o‘quvchiga bir xil qarab bo‘lmaydi.

Kimdir so‘rashni yaxshi ko‘radi, kimdir kuzatib turishni. O‘rgatishda jonli misollar, harakatlar, gap-so‘zlar orqali tushuntirish eng foydali usul .

Endi texnologiyasiz dars o‘tish qiyin. Bu mavzuda ham texnika yordam beradi. Masalan, vizual materiallar ko‘rsatish uchun proyektor, televizor yoki planshetlardan foydalaniladi. Bolaga sonlarni harakatlantirib ko‘rsatish juda foydali. Ko‘z bilan ko‘rganini yodlab qoladi. Men bir darsda raqamlar harakatlanadigan slayd qo‘llagandim, bolalar rosa diqqat bilan qarashdi. Shu orqali 9 ga 3 ni qanday qo‘shish, qaysi sonni avval olish, nega 10 chiqyapti — hammasi sekin tushuntirildi. AKT orqali darsga jon kiradi. Yana bir tomoni — vaqt tejaladi. Har safar doskada yozib o‘tirmasdan, tayyor videolar bilan tushuntirish osonroq bo‘ladi. Faqat shuni nazorat qilish kerak: texnika vosita bo‘lib qolsin, asosiy tushuntirish baribir o‘qituvchidan chiqsin. Ba’zida bolalar tasvirni ko‘rib tushunadi-yu, o‘zi mustaqil yechishga qiynaladi. Shunaqa holatlar bo‘ladi. Shuning uchun darsda texnologiya yordamchi vosita sifatida, lekin asosiy ishonch — o‘qituvchining og‘zaki tushuntirishi bo‘lishi kerak.

Xulosa

Dars davomida o‘quvchilar sonlarni qo‘shish, raqamlar bilan ishlashni o‘rganib, bilimlarini mustahkamladi. O‘qituvchi tomonidan tanlangan metodlar o‘quvchilarga mavzuni yaxshiroq tushunishlariga yordam berdi. Darsda eng muhim narsa shundaki, o‘quvchilar amaliy misollarni ko‘rib, o‘zlari javoblar topishga harakat qilishdi. Mavzuni o‘zlashtirish jarayonida ular nafaqat sonlarni qo‘shishni o‘rgandilar, balki bu jarayonda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirdilar. Bir darsda o‘quvchilarni 2 guruhga bo‘lib, raqamlar bilan ishlash bo‘yicha qiziqarli o‘yinlar o‘tkazildi. Misol uchun, “Raqamlar zanjiri” o‘yini orqali o‘quvchilar o‘zaro raqamlarni qo‘shish orqali qanday natijalar olishlari kerakligini aniqlashdi. O‘qituvchi ular bilan birgalikda natijalarni tahlil qilib, har bir guruhning fikrini qabul qilib, ularga qo‘shimcha tushuntirishlar berdi. O‘quvchilarning har biri o‘z fikrini aytib, qaysi yechimning to‘g‘ri ekanligini izohlashga harakat qildi. Dars jarayonida o‘qituvchi har bir o‘quvchini alohida baholadi. Ba’zi o‘quvchilar tezda javob berishdi, boshqalari esa bir oz qiynalishdi. O‘qituvchi ularni kutib, qanday qilib o‘zgartirish kerakligi haqida kichik maslahatlar berdi. Bu metod o‘quvchilarga bir-biriga yordam berish va muloqotda bo‘lish imkoniyatini yaratdi. Shu bilan birga, o‘quvchilar o‘z yechimlarini izlab, birgalikda ishlashni o‘rganishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umrzoqova, G. (2021). Pedagogika asoslari. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 120-bet.
2. Bektemirova, M. (2020). O‘quvchilarni interfaol metodlar yordamida baholash. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti, 45-bet.

3. Tursunova, A. (2019). Zamonaviy ta'lim metodlari. Tashkent: Ta'lim nashriyoti, 78-bet.
4. Iskandarov, R. (2018). Innovatsion pedagogik yondashuvlar. Tashkent: Boshqotirma nashriyoti, 62-bet.
5. Qodirov, S. (2021). Matematika darslarida savodxonlikni rivojlantirish. Tashkent: Ta'lim nashriyoti, 34-bet.
6. Abdullaeva, D. (2020). Yangi metodlar bilan matematika o'qitish. Tashkent: O'qituvchi nashriyoti, 90-bet.
7. Usmanova, N. (2021). Ilg'or o'qitish metodlari. Tashkent: Yoshlar nashriyoti, 56-bet.